

**Journal of Social Research in Uzbekistan****JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:  
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**SCIENTIFIC THEORY OF GREAT PAINTING WORKS IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN**

*Shikhnazar Rakhimberganovich Jumaniyazov*

professor

National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Bekhzod  
Tashkent, Uzbekistan

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Social consciousness, riders, princess, image, society, attitude, means of education, cultural buildings, years of independence, realistic traditions, complex composition, thinking, финал артс, тхе еволюцион оф арт, пеарлс оф арт, хисторий оф арт, тхе стагес оф девелопмент, тхе ачиевементс ин тхе период оф индепенденсе, тхе интернатионал импортансе оф тхе финал артс, перспективе, артистс анд среаторс, ландассапе

**Received:** 15.01.24

**Accepted:** 17.01.24

**Published:** 19.01.24

**Abstract:** In the scientific theory of monumental paintings in Uzbekistan, the emergence and development of fine arts on the basis of human labor, beliefs, religious views, artistic and aesthetic ideals, the spirit of the time, its political, spiritual and aesthetic views.

Fine art also reflects a person's mental image, his or her interactions with others, and the psychological and emotional content of the visual state. Sometimes there are images that do not exist, that are the product of the artist's imagination.

The display of fine art allows the artist to express his or her attitude to a particular event in life at a high level.

**O'ZBEKİSTON TASVIRİY SAN'ATIDA MAHOBATLI RANGTASVİR ASARLARINING İLMİY NAZARIYASI**

*Shikhnazar Raximberganovich Jumaniyazov*

professor

Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti  
Toshkent, O'zbekiston

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy ong, otliqlar, malika, obraz, jamiyat, munosabat, tarbiya vositalari, madaniy binolar, mustaqillik yillari, realistik an'analar, murakkab kompozitsiya, tafakkur, tasviriy san'at, san'at evolyutsiyasi, san'at durdonalari, san'at tarixi, taraqqiyot bosqichlari, mustaqillik davri yutuqlari, tasviriy san'atning xalqaro ahamiyati, istiqbol, rassomlar, ijodkorlar, manzara

**Annotatsiya:** O'zbekiston tasviriy san'atida mahobatli rangtasvir asarlarining ilmiy nazariyasida insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'lishi va rivojlanishi, badiiy-estetik ideallar, davr ruhiyati, uning siyosiy, ma'naviy va estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylanganligi haqida.

Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsiyal mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'limgan, rassom tasavvurining mahsuli bo'lgan obrazlar yuzaga keladi.

Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiiga o'z munosabatini yuqori darajada ifodalashiga imkon beradi.

## НАУЧНАЯ ТЕОРИЯ ВЕЛИЧЕСТВЕННЫХ КАРТИН В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

**Шихназар Рахимберганович Джуманиязов**

*профессор*

*Национальный институт живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзода  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Общественное сознание, всадники, принцесса, образ, общество, мироощущение, образовательные средства, культурные сооружения, годы независимости, реалистическая традиция, сложная композиция, мышление, изобразительное искусство, эволюция искусства, шедевры искусства, история искусства, этапы развития, достижения периода независимости, международное значение изобразительного искусства, перспектива, художники, творцы, пейзаж

**Аннотация:** В научной теории величественных картин в изобразительном искусстве Узбекистана речь идет о возникновении и развитии изобразительного искусства на основе человеческого труда, верований, религиозных взглядов, духовно-эстетических идеалов, духа времени, его политических, духовно-эстетические взгляды.

Изобразительное искусство освещает мысленный образ человека, его взаимодействие с окружающими, психологическое и эмоциональное содержание зрительного состояния. Иногда появляются несуществующие образы, являющиеся плодом воображения художника.

Выразительность образов изобразительного искусства позволяет художнику на высоком уровне выразить свое отношение к определенному жизненному событию.

### KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning uzi tashkil etishi kerakligi uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning xis tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga oid bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyofasini, uning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini, tasviriy holatning psixologik va emotsiyal mazmunini ham yoritadi. Ba'zan mavjud bo'lмаган, rassom tasavvurining mahsuli bo'лган obrazlarni ham yuzaga keltiradi. Insoniyat tarixidagi turli davrlarni aks ettiradi[1,48].

Davrning faqat hissiy holatigina emas, balki uning g'oyaviy mohiyati, siyosiy, falsafiy, estetik va etik g'oyalari ham tasviriy san'atning mazmuniga aylanadi. Tasviriy san'at obrazlarining ko'rgazmaliligi rassomga hayotning muayyan hodisasiga o'z munosabatini yuqori darajada ifodalashiga imkon beradi.

Shu tufayli hayotni bilishning faol shakli sifatida jamiyatning ijtimoiy hayotida, ma'lum tizimning ommaviy ongini qaror topishida muxim rol o'ynaydi.

### **ASOSIY QISM**

Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida tasviriy san'at paydo bo'лган va rivojlangan. Qadimgi tosh asrining ilk bosqichida inson o'z ehtiyoji uchun zarur bo'лган buyumlarni yaratish, libos, turar joylar tayyorlash jarayonida qulaylik, maqsadga muvofiqlik tushunchalari rivojlanib, ritm, simmetriya hissi ortdi[10,36].

Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan tasviriy san'at insonning dunyo, borliq to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini, xudolar darajasiga ko'tarilgan fir'avnlarni ulug'lash quroliga aylandi[8,12].

Insoniyat sivilizatsiyasining muhim o'choqlaridan hisoblangan O'rta Osiyo, uning ajralmas qismi O'zbekiston hududida ham tasviriy san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallab, davr hamda inson tafakkuridagi o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi

Shuni aytish lozimki, so'nggi yillarga kelib tasviriy san'atga jamiyat hayotini o'zgartiruvchi, unga xizmat qiluvchi, fikrlar almashinuvini ta'minlovchi hamda estetik ahamiyat kasb etuvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida munosabat bildirilayotganligi diqqatga sazovordir. Ana shunga ko'ra, insonning bilimlilik tomoni san'atning ko'rinishlarini namoyon ettirish holatlarini amalga oshiradi.

Insoniyat jamiyatida tarbiya quroli xizmatini o'taydigan ijod turi bu albatta mahobatli rangtasvir san'atidir. Dunyoga kelgan har bir inson doimiy harakatda, izlanishda bo'ladi, o'rganadi, kashf qiladi, o'zidan nimadir qoldirishga urinadi.

Mamlakatimizda har yili yangi yangi san'atkorlar paydo bo'lib, ular san'atimizni yanada rivojlantirish va boyitishga xissa qo'shib kelmoqda. Uni o'rganish uchun tarix sahifalarini ochish kerak. Tasviriy san'atning rivojlanishi mil. av. IV-asrda namoyon bo'ldi. Bu davrda rangtasvir yoki haykaltaroshlik rivoji eng muhimi, tasviriy san'atning me'morchilik bilan birlashganligini ko'ramiz.

Dalvarzintepa devoriy sur'atlari mavzularning turli va mahorat bilan ishlanganligini ko'rishimiz mumkin. Devoriy rasmlar va haykaltaroshlikda bu davr rivojlanishida diniy tushunchalar

turli etnomadaniy oqimlar katta ta'sir ko'rsatgan. Bunda tasviriy san'atning nodir namunalaridan biri Bolaliktepa devoriy sur'atlaridir. Unda qahramonlar tantanali ko'rinishlar tasvirlangan[18].

Mahobatli rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu turdag'i asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirga, mayda detallardan kamroq foydalanishga harakat qilinadi.

Bunday izlanishlar natijasida san'at asarlari yaratiladi. Inson tabiatning eng mukammal bo'lagi ekan, u ham tabiat kabi aslida san'atkor hisoblanadi. San'at turlari juda ko'p. Mahobatli rangtasvir san'atining kelib chiqishi va rivojlanishi qadim davrlarga borib taqaladi.

Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to'g'risida real tasavvur berishi kerak. Mahobatli rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi[12,52].

Mahobatli san'at arxitektura va haykaltaroshlik bilan bog'langanda uning mavzusi va mazmunini badiiy fikrning ulug'verligini belgilaydi, unda tarixiy va xalq hayotidagi muhim voqealar tasvirlanadi.

Vaqt o'tishi bilan mahobatli rangtasvir san'atida ham bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa yurtimiz mustaqillikka erishgunga qadar bo'lgan davr san'ati ijtimoiy hayotga ham ta'sir etmay qolmadi.

60-80- yillarda mahobatli rangtasvir uchun ham samarali bo'ldi. Uning tur va janrlari kengaydi, ijodkorlar safi ko'paydi. Mahobatli san'at keng ma'nodagi inson jasoratini, go'zalligini ifodalash bilan birga dekorativ, estetik didni tarbiyalaydi.

Mustaqillikkacha bo'lgan mahobatli rangtasvir Mahobatli targ'ibot rejasi deb nomlanuvchi mafkura hukmronligi asosida shakllandi[12,52].

Mustaqillik yillarda mahobatli san'at o'zining yangi bosqichini boshladi. Bu davrda barpo etilgan jami ma'muriy madaniy binolar san'atkorlar asari bilan bezatildi.

O'zbekiston zamonaviy mahobatli rangtasvirida avvalgi yillardagi an'analar davom etdi. Ayni chog'da unda yangi tamoyillar va turli xil mavzular namoyon bo'ldi.

Hozirgi kunda bu yo'nalish o'zbek tasviriy san'atida yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda mahobatli rangtasvir asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqe va hodisalarini aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, kechinmalari, his-tuyg'ularini to'liq ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar o'zining yorqin ifodasini topadi.

Bugungi kundagi badiiy va ijodiy jarayon mahobatli rangtasvirda ijod qiluvchi rassomlardan yuqori malakali o'quv, saviyani talab qiladi. Shu bilan birga zamonaviy mahobatli rangtasvir me'morchilikning ajralmas bir bo'lagi sifatida o'zining aktualligini yo'qtgani yo'q. Arxitekturani

his etish, uning qanday uslubda bajarilganini bilish, makon va intererdag'i qonunchilikni sezalish, bularning barchasi rassomdan talab etiladigan sifatlardir.

Istiqlol yillaridagi mahobatli san'at rivojlanishi ijodiy erkinlik, badiiy meros, boy an'analarga murojaat etilishi bilan bog'liq.

Ushbu davrda yangi ma'muriy-ijtimoiy inshootlar, binolarni qayta ta'mirlash, yangi shahar ansamblarini barpo etish ishlarining jadallahib ketishi mahobatli rangtasvirchilar yangi ifoda vositalarining izlanishiga, badiiy yechimlarning qidirib topishiga asos bo'ldi.

O'zbekistonda ro'y berayotgan yirik o'zgarishlar, yangilanish, taraqqiyotning yangi yangi bosqichlarga ko'tarilishi mazkur san'at yo'nalishida ulkan kashfiyotlar amalga oshirishda imkon yaratmoqda. O'zbekiston zamonaviy tasviri san'atining asosiy tamoyillari, uslublarning kengligi hamda yuqori mahorati, obrazlar mazmunini saqlagan holda, realistik an'analardan tortib, avangardlik yo'lidi izlanishlarga, monumental san'ati namunalarida namoyon bo'ladi[17].

Jumladan, mana shunday ko'rak inshootlardan biri Senat binosining asosiy kirish zali devorlarida yurtimizning buyuk rassomi, akademik V.I.Burmakin ijodiga mansub mahobatli rangtasvir asarlarini ko'rishimiz mumkin.

Bu asarlarda Sher dor madrasasining ornamental shakllaridan tashkil topgan juda murakkab kompozitsiyani hamda uning qarshisidagi ikkinchi asariga nazar tashlasak, ushbu asar abstrakt yo'nalishida yaratilgan. Asarda ranglar orqali shakllardan iborat bo'lgan, yuqoriga qarab intilayotgan chizgilarda, yurtimizning qadimiy o'lkaligini mahorat bilan tasvirlagan.

Poytaxtimiz markazida qurilgan "Forumlar saroyi" binosining yaratilishi yurtimiz tarixida katta o'zgarish sodir bo'ldi. Ushbu binoning eksterer hamda interer ko'rinishlariga e'tibor beradigan bo'lsak, milliyligimiz ruhi sezilib turganini his qilamiz. "Forumlar saroyi" binosi bezatilishi to'g'risida gapirar ekanmiz, uning ichki ob'ektida foye devoriy qismida, O'zbekiston xalq rassomi, akademik J. Umarbekov tomonidan "Kelajakka intilgan O'zbekiston" nomi ostidagi falsafiy monumental rangtasvir asar yaratildi. Ushbu asar yurtimizning milliy san'atining ravnaqiga ulkan xissa qo'shgan. Qadriyatlarning aloqasi va ta'siri g'oyasini rassom o'ziniing "Idrokli Inson" mahobatli kompozitsiyasida aks ettiradi[20].

Asarda uning rangtasvir uslubi keskin o'zgarganligini, shakl mahobatini, kompozitsiya va ritmning ma'nosini, rangtasvirdagi nur va havodan iborat fazoviy muhitning harakatini kuzatish mumkin. "Idrokli Inson" asarida Umarbekov inson zakovati va bilim tajribasining asrlar davomida mukammallahib, o'sib borishi g'oyasini buyuk ong va iqtidor vakillari orqali yetkazishga harakat qilgan.

Shaxrimizdagi ko'rak inshootlardan biri O'zbekiston Davlat Konservatoriysi binosining Organ zalidagi monumental rangtasvir asar O'zbekiston xalq rassomi R. Xudayberganov tomonidan yaratilgan, ushbu asar monumental rangtasvirning "Vitraj" uslubida bajarilgan bo'lib, binoning

interer qismi ko‘rinishiga asardagi ranglar tovlanishi shu zaldan taralayotgan kuy zavq bag’ishlaydi. Rustam Xudayberganovning ushbu yillarda yaratilgan yana bir monumental rangtasvir asarlaridan biriga to‘xtaladigan bo‘lsak, Toshkent shaxrining markazida qurilgan Senat binosi foyesining tepe qismiga yaratilgan mazkur asar “Vitraj” uslubida ishlanib, “Hayot daraxti” deb nomlanadi. Ushbu asarning umumiy xajmi 50 kv mdan ortiq bo‘lib, triptix shaklida bir mavzuli uch bo‘limdan iboratdir.

Rassom keng tafakkurli ijodkor sifatida odam, olam, koinot sirlarini o‘rganishga intiladi. Rassom tafakkur butunligini ko‘rish orqali anglash qobiliyatiga ega bo‘la boshlagandagina realistik rangtasvir mahoratini egallahsga kirishadi[5,17].

Mahobatli tasviriy san’at kompozitsiyasining aniqligi ranglarni umumlashtirib, kompozitsiyaning har tarafdan kirishga qulayligi bilan farqlanadi. Aynan shu, ya’ni tasviriy san’atning birmuncha siyosiylashtirilgan qolipida ishlash hammadan ham rassomlar uchun qiyin kechdi. Ularning uslubi bir xil bo‘lib, plakat tilida bayon qilishga undovchi topshirilgan mavzu asosida asar yaratishga majbur edi.

Lekin, bu davrda rassomlarning ichki dunyosini namoyon etuvchi haqiqiy va badiiy yorqin asarlar yaratildi. Ular orasida, so‘zsiz Ch.Axmarov, B.Jalolov va boshqa rassomlar tomonidan yaratilgan mahobatli rangtasvir asarlarini aytish mumkin.

Ijodkor yaratgan asarlarda asrlar davomida insoniyat uchun muqaddas qadriyatga aylangan qarashlar va ayni paytdagi turli dinlarning mohiyatini belgilagan tushunchalar, olamni idrok etish, undagi o‘z o‘rnini anglash bilan bog‘liq muammolar asosiy mavzular qatoriga kiradi.

Ushbu asarlarda rassomning tasavvuri aks etgan. Tasavvur va xayolot olami fazo kabi cheksizdir. Inson tasavvuri bilan tirikdir. Tasavvur muyyan shaklga kirgandagina haqiqatga aylanadi.

Mahobatli rangtasvirchi rassom yutuqlari shundaki, tasviriy san’atga ichki individual nigohlari bilan qaragan holda o‘z hissasini qo‘shib, dunyoga yaqqol namoyon etmoqda.

Mustaqillik yillaridagi tashkil etilgan ko‘rgazmalardan shu narsa ko‘rindiki, bu davr rassomlarni ijodiy erkinlik davri bo‘lib, asarlarni mavzusi, syujeti, g‘oyasi, kompozitsion yechimi, rang uyg‘unligi - kaloritlarni g‘oyat kengligi, badiiy uslublardagi mustaqillik, shijoat va ijodkorlik tuyg‘ulari bilan yangilanishi ko‘rinib turdi.

Prezidentimiz Sh Mirziyoev ta’kilaganidek: “Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rni va mavqeyiga ega. Biz dunyodagi barcha davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilish va amaliy muloqot uchun ochiqmiz” fikri o‘z tasdig‘ini topmoqda[21].

Hozirgi globallashuv jarayonida shaklan va mazmunan milliy yo‘nalish kasb etadigan san’at umuminsoniy xarakter kasb etishi hamda jahon sivilizatsiyasida namoyon bo‘lishida o‘zining xarakterli xususiyatlarini saqlab qolishi kerak. Bu jihatdan tobora yangi shakl va yo‘nalishlarni qamrab olayotgan tasviriy san’atning o‘rni beqiyosdir. Tasviriy san’atdagi mahobatlilik o‘z navbatida yo‘nalishning keng qamrovliligi va chuqr mazmunliligiga ko‘ra ahamiyatlidir.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng ajdodlarimiz tomonidan ming yilliklar ichida yaratilgan meros an’anaviy badiiy madaniyati, tasviriylar va amaliy san’atini tiklash, saqlash hamda taraqqiy ettirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mahobatli rangtasvir san’ati rivojini asosiy mezonlardan biri bo‘lgan ijodiy erkinlikni, mavzu va uslublarining erkin tanlanishini, eng muhim esa badiiy me’rosimizning boy an’analariga murojaat qilishga keng imkoniyatlar yaratmoqda, hamda ma’naviy olamimizni yuksaltirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Mahobatli rangtasvir asarlarini ishlash rassomdan bilim, ko‘nikma va yuksak mahoratni talab etsa, ushbu sinalgan tajribalarni yosh rassomlarga yetkazib berishda pedagoglardan ham mukammallik asosida puxta o‘rgatilishini talab etiladi.

Yosh ijodkorlarning ishiga to‘g‘ri rahbarlik qila olish uchun bo‘lajak o‘qituvchi rangtasvir asoslarini puxta egallashi va rangshunoslik nazariyasini bilishi shart. Shuning bilan birga haqqoniy rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o‘zlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo‘llarini o‘rgatish mumkin.

Ayniqsa, bugungi kunda keng ishlatilib kelinayotgan ranglarni tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

Bu borada mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo‘lib, asosiy ranglarni kashf etgan[6,21].

Isaak Nyuton esa qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘likni ko‘p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarni hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardanining kichik tirqishidan o‘tkazib, uning yo‘liga uch qirrali prizma qo‘ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug‘lik yig‘indisi hosil bo‘lgan.

Ekranda spektr ranglari paydo bo‘lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg‘aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, nemis shoiri va san’atshunos I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘proq qiziqtirgan.

U “Ranglar haqida ma’lumot” nomli asarida ranglarni iliq vasov uq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg‘ish, qizil) ranglar kishida kayfi chog‘lik tuyg‘usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma’yuslik tuyg‘usini uyg‘otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi[2,36].

Ko‘p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och-to‘qligi va to‘yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko‘rsatdi. Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun va qoidalar ishlab chiqilgan bo‘lib, yosh rasssom o‘quv jarayonida va ijodiy ishida ularga bevosita amal qilishi shart. Tabiatdagi ranglar xususiyatiga ko‘ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo‘linadi.

Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Ular o‘zaro almashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni xosil qilish mumkin.

Agar biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi[6,21].

Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunishimiz kerak.

Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori, ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Ana shunga ko‘ra doiraning birinchi yarmida iliq ranglar, ikkinchi yarmida esa sovuq ranglar joylashganligi ko‘rshimiz mumkin.

Iliq va sovuq deb nomlanishiga sabab, qizil, sariq rarnglar olovni, qizigan temir cho‘g‘ini eslatса, havorang, zangori, yashil esa muzni, suvning ranggini eslatadi. Agar ikkita spektr ranglarni ustma-ust tushurilsa, ranglar bir-biriga qo‘shilib murakkab rang hosil bo‘ladi.

Masalan, qizil, binafsha va havo ranglar bir-biriga qo‘shilganda chiroyli tusdagi pushti, to‘q qizil, sapsar siyohranglarni hosil qilishmiz mumkin.

Oq rang beradigan spektr ranglar qo‘shimcha yoki to‘ldiruvchi ranglarni hosil qiladi. Chunki ular oq rang hosil bo‘lgunga qadar bir-birini to‘ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bundan tashqari bo‘yoqlarning qo‘shilishi bilan spektr ranglarning qo‘shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektr rang: qizil, yashil va havorang qo‘shilganda, och holda tasvirlangani oqqa yaqin rangni hosil qiladi.

Asosiy qizil, sariq va havorang bo‘yoqlarini qo‘shilishidan esa qoraga yaqin rang hosil bo‘ladi.

Bu kabi amaliy tajribalar yosh rassomlarda ranglarni ko‘rish va idrok etish qobiliyatini astasekin mashqlar bajarishi orqali shakllantirib boriladi.

Bilamizki, tabiatdagи narsalarning aniq ranggini belgilab ko‘rsatadigan tayyor bo‘yoqlar mavjud emas. Ammo rassom ranglarning o‘zaro ta’siri va ko‘rinish holatlarini idrok etib, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsaning ham rangini chiqarib bera oladi.

Tasvirda shunday hayotiy xaqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata bilishi yordam beradi.

Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini aks ettirishda ko‘kintir, havorang, yashil, zangori tuslardan foydalilanadi.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o‘rtasida to‘la o‘xshashlik bo‘lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o‘xshashlik bo‘lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanini chuqr o‘rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak.

Har-xil bo‘yoqlar bilan yuqorida qayd etilgan tajribalarni o‘tkazib ko‘rish, xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o‘zlashtirish uchun ko‘proq mashqlar bajarish orqali ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Mahoratli rassom asar yaratishda ekan, u bo‘yoq va maxsus usullar, syujet tanlaydi, kompozitsiya, kolorit, yorug‘lik masalalarini hal qiladi, ya’ni o‘ziga xos vositalar bilan voqealikni umumlashtiradi va tipiklashtiradi, tasvirlagan obrazlari orqali hayotda sodir bo‘lgan voqeani faqat tushunishgagina emas, his etishga ham yordam beradi.

Bunday emostional shaklda ifodalangan g‘oyaning insonlarga ta’siri kuchli bo‘ladi. Shunday qilib, asarda hayotni ko‘rish orqali obrazni idrok etadi.

Hayotni bilish va umumlashtirishning san’atdagi asosiy shakli badiiy obrazdir. Rassom biror voqelikni aks ettirishda ekan, unga o‘z munosabatini bildiradi, baho beradi, u haqda fikr yuritib, o‘z hukmini chiqaradi.

Mahobatli rangtasvir asar yaratishda eng avvalo rassom uchun ashyoning tarkibi, rangi, yuzasiining fakturasi muhim hisoblanadi. Ashyolar tabiiy xususiyatiga ega bo‘lib, uning imkoniyatini to‘g‘ri ishlata bilish lozim. Tabiiylik darajasi ham badiiy imkoniyat yaratishi mumkin.

Mahobatli rangtasvir san’atida rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof muhit go‘zalligini, turli kayfiyat va his-tuyg‘ularini ifodalay oladi.

Xulosa qilib aytganda jadal rivojlanib borayotgan mustaqil davlatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bugungi kun yoshlari oldiga barcha sohalarda ma’suliyatli vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ymoqda.

Shu jumladan mahobatli rangtasvir san’ati ham bundan mustasno emas. Voqelikni bo‘yoqlar vositasida tasvirga tushirilganda rangning bir-biriga ta’sirini nazarda tutish va ranglar asosida tasvirlanishi zarur. Shunisi muhimki, tasvirda to‘g‘ri topilgan ranglar, voqeani anglay olish bilan birga, asar go‘zalligini bilish ravnaqiga ham zamin yaratadi.

Bir qarashda O‘zbekiston san’atidagi umumiy shakllar boshqacha bo‘lib ko‘rinsada, hozirgi ko‘rib turganimiz ijodkorlarning madaniy manbaalarga, ijodimiz, fanimiz erishgan yutuqlarini o‘rganish va o‘zlashtirish, ajdodlarimiz tarixi, biz yashayotgan yangi davrga qadar unda yashagan xalqlarning merosiga qiziqishidan darak beradi.

## XULOSA

O‘zbekiston rassomlari jahondagi badiiy jarayondan chetda qolayotgani yo‘q. Informatika va kommunikatsiya jadal taraqiy etayotgan hozirgi davrda zamin barchamizning umumiy xonadonimiz bo‘lib qolmoqda hamda uzoq uzoqdagi ellar va elatlar ham yaqin bo‘lib, ularning dardu quvonchini o‘zimizni dardu quvonchimiz singari anglamoqdamiz. Ular bizga o‘zimizniki singari ilhomlantirmoqda.

O‘zbekistonning bugungi kunda olib borayotgan siyosatining asosida erkinlik g‘oyasi bilan to‘yingan asarlarga talab vaqt o‘tishi bilan ortib bormoqda, bu esa rassomlar ijodiga alohida e’tiborni ortishidan dalolat beradi.

Ayni paytda yurtimizda monumental san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha oldimizda ko‘pgina vazifalar turganini ta’kidlash lozim. Xususan bu sohada ham zamonaviy ijodiy maktab yaratish, shu maqsadda keng miqyosda fikrlaydigan, qadimiylar tariximiz, milliy tabiatimizni chuqur biladigan, o‘zi yaratayotgan obrazining barcha xususiyatlarini avvalambor yuragidan, qalbidan o‘tkazib ijod qilishga qodir bo‘lgan haykaltarosh va me’morlarni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib turibdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Hasanov. R., “Fundamentals of Fine Arts”, Tashkent, 2009.
2. Nabiev M., Coloring. - Tashkent. Teacher, 1996
3. "Art of Uzbekistan". T.: 2001.
4. Abdirasilov. S., Tolipov. N., - Bench painting. "Economics and Finance".T.: 2010.
5. O.Moyinov “Rangtasvir” Tashkent “Sharq” printing and joint-stock company 2007
6. G.A. Artikov. “Painting equipment and technology of objects” Tashkent “Sharq” printing and joint-stock company 2007
7. Applied decorative arts. Fine arts. O'zME. Tashkent: 12 vols. 2006; Pages 58-67;
8. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока Ташкент: 1987;
9. Karabaev, U. Issues of culture. Tashkent: 2009; 251 pages
10. Stepanov, G.P. “Compositional problems of art synthesis”.- L. “Artist”. 1984
11. Decorative monumental painting, Shanghai. 1999.
12. Monumentalnoe iskusstvo.- L.
13. Decorative stenopis on the building.
14. B.Oripov. Factors to increase the effectiveness of art classes. -T 1978
15. E.V.Shoroxov. Fundamentals of composition. M., 1979- u. (in ms).
16. B.N.Oripov. Methods of teaching fine arts. N., 2001- y.
17. <http://www.ziyonet.uz>
18. <http://www.google.uz>
19. <http://www.yandex>
20. <http://www.Wikipedia.uz>
21. <http://www.kultura.uz>